

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

№7

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2025
IYUL



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB™
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



UZBEKISTAN

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr,
80- sahifa, iyul, 2025-yil.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afforovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi

- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

Yashil ish o'rinlari va ekologik ta'lim: o'zbekiston yoshlari uchun yangi imkoniyatlar	12
Rashidov Saidislom, Zaripova Mardona	
Soliqlarni to'lashdan bo'yin tovlash holatlarining informatsion assimetriyaga ta'siri	16
Babanazarova Nilufar Xolmatovna	
Iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashda budget mablag'laridan foydalanish mexanizmining o'rni va ahamiyati	23
Rustamova Gulmira Aliqulovna	
Dasturiy mahsulotlar logistikasi	30
Uzaqov Ortik Shaymardanovich	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	35
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
Oliy ta'lim muassasalarini "yashil universitet" tizimiga transformatsiya qilish istiqbollari (buxoro davlat texnika universiteti va malayziyaning oliy ta'lim muassasalari o'rtasidagi hamkorlik misolida)	39
Rahmatov Shuxrat Axatovich	
Davlat qarzi siyosati samaradorligini oshirish orqali makroiqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash	43
Sayfutdinov Xasanboy Dilshodovich	
Оптимизация бизнес-процессов и модернизация занятости в условиях цифровизации	47
Явкачев Шохзод Зайниддин углы	
Strategik rivojlanish sharoitida investitsion jozibadorlikning o'rni	54
Otaboyev Axmed Maxsudbek o'g'li	
Kichik biznes subyektlarini moliyalashtirishni rag'batlashtirish	61
Annaklichev Saxi Saparmuxamedovich	
Альтернативный подход к распределению финансовых ресурсов для эффективного финансирования высшего образования	65
Гулшат Карлибаева	
Banklarda moliyaviy barqarorligini ta'minlashda moliyaviy natijalar ahamiyati	70
Djalilov G'ayrat Qaxramanovich	
O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir o'tkaza oladigan zamonaviy qarashlarga ega memrlarning yetishmasligi	74
Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li	



O'ZBEKISTONDA JAHON SIVILIZATSIYASIGA TA'SIR O'TKAZA OLADIGAN ZAMONAVIY QARASHLARGA EGA MEMORLARNING YETISHMASLIGI

Nabiyev Hamidjon Mirzo o'g'li

Buxoro davlat texnika universiteti,
"Arxitektura" kafedrası o'qituvchi-stajyori.

Annotatsiya: "Arxitektura-bu vaqtni muzlatib qo'yishdir. U o'tgan zamonlar bilan kelajakni bog'laydi". Zamonaviy arxitektura bugungi kunda butun dunyo bo'ylab turli ijtimoiy, madaniy va iqtisodiy kontekstlarda rivojlanmoqda hamda insoniyat hayotining turli jabhalariga ta'sir ko'rsatishda davom etmoqda.

Kalit so'zlar: Fallingwater, Villa Savoye, Ar-Riyoddagi Qirol Abdulla moliya tumanidagi yangi metro bekati.

Abstract: "Architecture is the freezing of time. It connects the past with the future". Today, contemporary architecture is evolving across various social, cultural, and economic contexts worldwide and continues to impact different aspects of human life.

Keywords: Fallingwater, Villa Savoye, the new metro station in the King Abdullah Financial District in Riyadh.

Аннотация: "Архитектура это замораживание времени. Она соединяет прошлое с будущим". Современная архитектура в настоящее время развивается в различных социальных, культурных и экономических контекстах по всему миру и продолжает оказывать влияние на различные аспекты жизни человека.

Ключевые слова: Fallingwater, Villa Savoye, новая станция метро в Финансовом районе имени короля Абдуллы в Эр-Рияде.

KIRISH

O'zbekiston boy me'moriy merosga ega davlat sifatida qadimdan jahon sivilizatsiyasida o'z o'rniga ega bo'lib kelgan. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda qad rostlagan yodgorliklar masjidlar, madrasa, minoralar va maqbaralar o'zining noyob uslubi, bezaklari va me'moriy g'oyalari bilan nafaqat mintaqa, balki butun insoniyat madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan.

Zamonaviy arxitektura dunyo miqyosida inson hayoti sifatini yaxshilash, ekologik muvozanatni saqlash va estetik qadriyatlarni birlashtirish orqali tez sur'atlarda rivojlanmoqda. Biroq O'zbekistonda bu yo'nalishda Frank Lloyd Wright, Le Corbusier, Norman Foster yoki Zaha Hadid kabi arxitekturani konseptual darajaga olib chiqqan, zamon ruhini ifoda etgan ijodkorlar hozircha shakllanmagan. Bu esa, mamlakatning jahon me'morchiligidagi mavqeini mustahkamlashga to'sqinlik qilmoqda. Shu bois, ushbu tadqiqotda O'zbekistonda jahon sivilizatsiyasiga ta'sir ko'rsata oladigan zamonaviy memorchilik maktabining shakllanmasligining sabablari tahlil qilindi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur masala bo'yicha bir qator ilmiy va amaliy tadqiqotlar mavjud bo'lib, ular asosan O'zbekistonning me'moriy merosi, tarixiy obidalar, diniy va madaniy kontekstda shakllangan inshootlarga oid. Biroq zamonaviy arxitektura va innovatsion yondashuvlar, yosh arxitektorlarning xalqaro tajriba asosida rivojlanishi, ta'lim, texnologiyalar va ijodiy muhit masalalari hali to'liq ochib berilmagan.

Ko'plab manbalarda aytilishicha, arxitektura ta'limining zamonaviy tendensiyalarga mos emasligi, yosh arxitektorlarning real loyiha asosida amaliyot o'ta olmasligi, ilg'or texnologiyalarning yetarli darajada o'zlashtirilmayotgani, kreativ muhit va moliyalashtirish tizimining zaifligi bu sohada yuqori darajadagi mutaxassislar yetishmasligining asosiy omillaridandir.

Shuningdek, xalqaro maydonda samarali ishtirok etish uchun diplomatik va siyosiy qarashlarga ega bo'lgan kadrlarni tayyorlash zarurligi ko'rsatib o'tiladi. Bu fikrlar tadqiqotning dolzarbligini yanada oshiradi.



TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tahliliy va qiyosiy metodlardan foydalanildi. Ilmiy manbalar, davlat siyosiy hujjatlari va arxitektura ta'limiga oid strategik dasturlar tahlil qilindi. O'zbekiston va xalqaro arxitektura sohasi o'rtasidagi farqlar aniqlanib, ularni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqildi. Tadqiqotda mavjud muammolar va ularning sabablarini aniqlashga qaratilgan amaliy yondashuv asosida umimlashtirish usuli qo'llanildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Zamonaviy arxitektura-bu 20-asrning o'rtalaridan boshlab shakllanib va rivojlanib kelayotgan arxitektura yo'nalishi bo'lib, u sodda shakllar, minimalizm, yangi materiallar va texnologiyalarni qo'llash bilan xarakterlanadi. Zamonaviy arxitektura, odatda, an'anaviy uslublardan voz kechish, yangi fikrlar va innovatsiyalar asosida binolarni yaratishga qaratilgan bo'ladi.

Bu yo'nalishdagi asarlar inson hayoti va yashash muhitini yaxshilashga intiladi. Arxitektorlar ochiq makonlardan samarali foydalanish, tabiiy yorug'likdan keng foydalangan holda hamda ekologik jihatlarni hisobga olib loyihalashga intilishadi. Yana bir muhim jihat-bu barqarorlik va energiya samaradorligi. Ko'plab zamonaviy binolar qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishga asoslanadi va atrof-muhitga zarur yetkazmaslik prinsipiga amal qiladi.

Zamonaviy arxitekturadagi mashhur namunalar qatoriga Frank Lloyd Wrightning "Fallingwater" uyi (1-rasm), Le Corbusiarning "Villa Savoye" (2-rasm) hamda Zaha Hadidning shakllar va dinamik formalarni uyg'unlashtirgan arxitektura asarlari kiradi. Ushbu yo'nalishdagi arxitektura nafaqat estetik, balki funksional jihatlarni ham birdek muhim deb hisoblaydi.



1-rasm: Frank Lloyd Wrightning "Fallingwater" uyi



2-rasm: Le Corbusiarning "Villa Savoye" uyi



3-rasm: Ar-Riyoddagi Qirol Abdulla moliya tumanidagi yangi metro bekati

O'zbekiston arxitekturasini o'zining boy tarixi va madaniyati bilan ajralib turadi. Bu hududda ko'plab arxitektura uslublari va me'moriy yodgorliklar mavjud bo'lib, ular o'zbek xalqining tarixiy, diniy va madaniy merosini o'zida mujassam etadi. Eramizdan avvalgi IV asrdan boshlab O'zbekiston hududida, xususan, qadimiy Buxoro va Samarqand shaharlarida dastlabki me'moriy inshootlar vujudga kela boshlagan. VIII asrdan boshlab hududga islom dini kirib kelishi bilan yangi arxitektura yo'nalishlari shakllanib, masjidlar, madrasalar va maqbaralar qad ko'tara boshladi.

O'zbekistonning turli shaharlarida joylashgan diniy me'moriy obidalar masalan, Buxorodagi Kalon masjidi va Samarqanddagi Bibi-Xonim masjidi o'zining betakror dizayni, naqshlari va muvozanatli shakllari bilan dunyo arxitektura merosida alohida o'rin egallaydi. Shu bilan birga, o'zbek arxitekturasini nafaqat me'morchilik nuqtayi nazaridan, balki mahalliy an'analar, san'at turlari (naqshkorlik, ganch o'ymakorligi), musiqa va madaniyat bilan chambarchas bog'liq bo'lib, bu uyg'unlik yaratilgan har bir asarda yaqqol ko'zga tashlanadi. O'zbekiston arxitekturasini o'zining estetik go'zalligi bilan xalqaro miqyosda tan olingan bo'lib, bu yurtga tashrif buyurgan sayyohlarda unutilmas taassurot qoldiradi.

Shunday ekan, bugungi kunda, ya'ni "Ikkinchi Renessans" davrida, nega yurtimizda xalqaro miqyosda tan olingan, zamonaviy arxitektura maktabiga asos solgan mashhur arxitektorlar masalan, Frank Lloyd Wright, Le Corbusier, Norman Foster yoki Zaha Hadid kabi shaxslar yetishib chiqmayapti? Nega bizning me'morchilik maktabimizdan ham jahon hamjamiyati e'tirof etadigan, yuksak estetik va funksional yechimlar yaratadigan arxitektorlar yetishmasligi kerak? Aslida, bu borada ya'ni xalqaro saviyadagi me'morlar tayyorlashga oid izlanishlar yurtimizda shakllanmoqda, biroq ularning amaliyotga tatbiqi sust kechmoqda. Arxitektura sohasi bo'yicha raqobatbardosh kadrlar yetishtirish uchun tizimli yondashuv, ilg'or texnologiyalarni joriy etish, zamonaviy arxitektura yo'nalishlarini o'rgatadigan ilg'or ilmiy maktablar, amaliy loyihalar maydonchalari va xalqaro hamkorlik aloqalari zarur.

Xuddi shuningdek, O'zbekistonning jahon siyosatida ta'sir kuchiga ega bo'lishi uchun ham har sohada malakali mutaxassislar tayyorlanishi muhimdir. Bugungi kunda mamlakatda siyosatchilar, diplomatlar va ekspertlar tayyorlash borasida qator islohotlar amalga oshirilayotgan bo'lsada, ularning xalqaro miqyosdagi faolligi hali yetarli darajada sezilmayapti. Bu holat ko'plab ichki va tashqi omillarga bog'liq bo'lib, kadrlar tayyorlash tizimining takomillashuvi davr talabiga aylangan.

Ikkinchidan, O'zbekistonning tarixiy tajribasi, geosiyosiy joylashuvi va iqtisodiy holati ham ushbu jarayonga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Masalan, samarali diplomatiya va strategik muloqot uchun zarur bo'lgan mutaxassislarning yetishmasligi yoki ularni malakali tarzda tayyorlash uchun zarur resurslarning cheklangani dolzarb muammolar qatoriga kiradi.

Uchinchidan, yuqori malakali kadrlar tayyorlashda ta'lim tizimi, xalqaro hamkorlik va amaliyot bilan integratsiyani yo'lga qo'yish muhim ahamiyat kasb etadi. Agar o'quv jarayonida xorijiy tajriba, zamonaviy siyosiy nazariyalar va amaliy yondashuvlar e'tiborga olinmasa, samarali natijalarga erishish qiyinlashadi.

Shuningdek, davlat siyosati darajasida tashqi munosabatlarni rivojlantirish uchun puxta strategiyalar ishlab chiqish va ularni izchil amalga oshirish muhimdir. Shuning uchun, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarorida¹ mamlakatimiz jahon ijtimoiy-siyosiy manzarasida munosib o'rin egallashi mumkinligi ta'kidlab o'tilgan.

¹ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3183719>



XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekistonda arxitektura sohasidagi mavjud muammolarni hal etish uchun ushbu yo'nalishda ta'lim tizimini kompleks rivojlantirish, yosh mutaxassislarga amaliyot o'tash imkoniyatlarini yaratish, hamda zamonaviy texnologiyalar va dasturiy vositalarni chuqur o'rganishga ko'maklashish zarur. Bunday yondashuv orqali mamlakatda zamonaviy, raqobatbardosh arxitektorlarni tayyorlash jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish mumkin.

Avvalo, arxitektura ta'limi tizimining bugungi holatiga e'tibor qaratilganda, fakultetlarda zamonaviy tendensiyalar va ilg'or texnologiyalarni o'rganish imkoniyatlarining cheklangani, ushbu yo'nalish bo'yicha malakali kadrlar tayyorlash jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Bu esa, o'z navbatida, arxitektura bozorida yuqori salohiyatli mutaxassislarning yetishmovchiligiga olib kelmoqda. Shuningdek, yosh arxitektorlar uchun amaliyot o'tash va real loyihalarda ishtirok etish imkoniyatlarining cheklangani ularning kasbiy ko'nikmalarini shakllantirishda jiddiy to'siq bo'lmoqda.

Bundan tashqari, zamonaviy texnologiyalar va arxitektura sohasidagi dasturiy vositalarni puxta o'zlashtirish borasida ham muammolar mavjud. Bu boradagi mutaxassislarning yetishmovchiligi, ilg'or texnologiyalardan foydalangan holda tayyorlanadigan loyihalarning sifat darajasiga bevosita ta'sir qilmoqda. Shu bilan birga, mehnat bozorining arxitekturaga qo'ygan zamonaviy va innovatsion talablari, mavjud bilim va ko'nikmalar bilan uyg'unlashtirilmayotgani soha raqobatbardoshligining sustlashishiga sabab bo'lmoqda.

Yosh arxitektorlar uchun kreativ g'oyalarni rivojlantirishga xizmat qiluvchi muhit va ilhom manbalarining yo'qligi ham ularning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishda muhim to'siq sanaladi. Shuningdek, arxitektura sohasida moliyaviy vositalarning yetishmasligi, investitsiya jalb qilish mexanizmlarining murakkabligi, soha rivojlanishining iqtisodiy asoslarini mustahkamlashga to'sqinlik qilmoqda. Shunday qilib, arxitektura sohasida yuqorida qayd etilgan muammolarni tizimli ravishda bartaraf etish orqali nafaqat malakali va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash, balki O'zbekiston arxitektura maktabining xalqaro miqyosda o'z o'rnini topishiga ham erishish mumkin bo'ladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI

1. Mirziyoyev, Sh. M. "Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iylik bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz". -Toshkent: "O'zbekiston" NMIU, 2017. -592 b.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-sonli qarori. <https://lex.uz/docs/3183719>
3. Karimov, I. A. "Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch". -Toshkent: "Ma'naviyat", 2008. -82-bet.
4. Ismuhamedova, D. U. Shaharsozlik asoslari va landshaft arxitekturasi. -Toshkent, 2009.
5. "Ta'limga e'tibor-kelajakka e'tibor." -O'zbekiston Milliy axborot agentligi (UZA). https://uza.uz/uz/posts/talimga-etibor-kelazhakka-etibor_345185
6. "Zaha Hadid Architects' Middle East income triples." -The Architects' Journal. <https://www.architectsjournal.co.uk/news/zaha-hadid-architects-middle-east-income-triples>

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100